

**“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyati
yagona aksiyadorining
7-son qarori**

2023-yil 5-may
soat 10:30

Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi hamda jamiyat ustaviga muvofiq yakka tartibda qabul qilindi va 2023-yilning 11-may kuni yozma shaklda rasmiylashtirildi.

KUN TARTIBI:

“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyatida 2023-yil I chorak yakuni bo‘yicha o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini ko‘rib chiqish to‘g‘risida.

Kun tartibidagi masala bo‘yicha:

Korporativ boshqaruv kodeksiga asosan Jamiyat tomonidan taqdim etilgan axborot va ma‘lumotlar asosida “Silk Capital” MChJ tomonidan 2023-yil I chorak yakuni bo‘yicha jamiyatda korporativ boshqaruv tizimi bo‘yicha mustaqil baholash o‘tkazildi.

“Silk Capital” MChJning 2023-yil 3-maydagi 01/01-16-son xulosasiga asosan 2023-yil I chorak yakuni bo‘yicha “Dehqonobod kaliy zavodi” AJda o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalariga ko‘ra 621 ball to‘plangan hamda jamiyatning korporativ boshqaruv tizimi holati “yuqori” deb e‘tirof etilgan (*xulosa nusxasi ilova qilingan*).

Kun tartibidagi masala yuzasidan qaror qilindi (2 301 392 924 315 dona ovoz, 100 %):


1. “Silk Capital” MChJning 2023-yil 3-maydagi 01/01-16-son xulosasiga asosan 2023-yil I chorak yakuni bo‘yicha “Dehqonobod kaliy zavodi” AJda o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalariga ko‘ra 621 ball to‘planganligi hamda jamiyatning korporativ boshqaruv tizimi holati “yuqori” deb e‘tirof etilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisi v.b. (Usarov):

- “Silk capital” MChJ tavsiyalariga asosan korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin hamda bajarilishini qat‘iy nazoratga olgan holda ta‘minlasin;

- amalga oshirilgan ishlar yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashiga tegishli ma‘lumotlarni kiritсин.

**Jamiyatning yagona aksiyadori
“O‘zkimyosanoat” AJ nomidan
boshqaruv raisi v.b.**



T. Muxamedjanov